Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA DAROMADLAR VA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: HAMKORBANK ATB VA IPAK YO‘LI BANK ATB MISOLIDA

Esanov Oybek
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi kafedrasi
Abdullayeva E'zoza
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Bank-Moliya xizmatlari fakulteti
BI-424 guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24014982

Annotatsiy: Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida moliyaviy natijalarni shakllantirishda daromadlar va xarajatlar hisobining o‘rni hamda uni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida rivojlantirish yo‘nalishlari o‘rganiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Hamkorbank ATB va Ipak Yo‘li bank ATB faoliyati tanlanib, ularning moliyaviy hisobotlari asosida asosiy daromad va xarajat ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar:tijorat banklari, bank daromadlari, bank xarajatlari, moliyaviy natijalar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, IFRS 9, kredit yo‘qotishlari, qiyosiy tahlil.

Abstract. This article examines the role of income and expense accounting in the financial performance of commercial banks in Uzbekistan and explores ways to improve accounting practices in accordance with International Financial Reporting Standards (IFRS). Hamkorbank JSCB and Ipak Yuli Bank JSCB are selected as the research subjects, and their financial statements are used to conduct a comparative analysis of key income and expense indicators.
Keywords: commercial banks, bank income, bank expenses, financial performance, International Financial Reporting Standards, IFRS 9, expected credit losses, comparative analysis.

Kirish: Tijorat banklari faoliyatida daromadlar va xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish ularning moliyaviy holatini baholash, resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [1, 3]. O‘zbekiston bank sektorida amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy islohotlar sharoitida moliyaviy operatsiyalarni aniq aks ettirish, hisob ma’lumotlarining ishonchliligi va ochiqligini ta’minlashga bo‘lgan talab yanada ortib bormoqda [4, 6]. Shunga qaramay, banklarda daromad va xarajatlarni hisobga olish amaliyotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga to‘liq uyg‘unlashtirish bilan bog‘liq ayrim uslubiy va amaliy masalalar mavjud [2, 7]. Shu nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishning nazariy asoslari va amaldagi mexanizmlarini o‘rganish, mavjud

muammolarni aniqlash hamda ularni xalqaro standartlar talablariga muvofiq takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Buxgalteriya hisobi nazariyasida daromad korxona yoki tashkilotning hisobot davridagi iqtisodiy manfaatlari ortishi bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi. MHXSning Moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning konseptual asoslariga ko‘ra, daromadlar aktivlarning ko‘payishi yoki qiymatining ortishi bilan tavsiflanadi. Bunda mulkdorlarning ustav kapitaliga kiritgan hissalari daromad sifatida e’tirof etilmaydi.

Bank faoliyatining samaradorligi faqat daromadlarning umumiy hajmi bilan emas, balki ularning barqarorligi, shakllanish manbalari va xarajatlarni qoplash imkoniyati bilan ham belgilanadi. Olingan daromadlar bankning operatsion xarajatlarini moliyalashtirish, jalb qilingan resurslar qiymatini qoplash, kredit risklari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni hisobga olish va sof foydani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, daromadlar oqimining muntazamligi hamda xarajatlar bilan mutanosibligi bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bank daromadlarini baholashda faqat kreditlar bo‘yicha olingan va jalb qilingan mablag‘lar uchun to‘langan foizlar o‘rtasidagi farq bilan cheklanib qolish to‘g‘ri emas. Zamonaviy tijorat banklari komission xizmatlar, valyuta ayirboshlash, moliyaviy vositachilik va boshqa operatsiyalar orqali ham sezilarli daromad oladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Mazkur tadqiqotda Hamkorbank ATB va Ipak Yo‘li bank ATBning moliyaviy hisobotlari asosida daromadlar va xarajatlar hisobi o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Banklarning foizli va foizsiz daromadlari, operatsion xarajatlari hamda sof foydasi o‘zaro taqqoslanib, IFRS talablariga muvofiqligi baholandi. Olingan natijalar asosida buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar: 2025-yil yakunlari bo‘yicha Hamkorbank va Ipak Yo‘li bank taqqoslanishi

Tahlilda ikki bankning MHXS (IFRS) bo‘yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Barcha summalar mln so‘mda.

Ko’rsatkichlar	Hamkorbank ATB	Ipak yo’li bank ATB
Foizli daromadlar	5 445 430	3 634 224
Foizli daromadlar bo’yicha sof natija (kredit yo’qotishlari hisobga olingandan so’ng)	2 501 726	1 890 521
Sof foyda	1786 756	886 309

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2025-yilda Hamkorbank ATBning foizli daromadlari 5 445 430 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Ipak Yo‘li bank ATBda ushbu ko‘rsatkich 3 634 224 mln so‘mga teng bo‘lgan. Demak, Hamkorbankning foizli daromadlari Ipak Yo‘li banknikidan 1 811 206 mln so‘mga yuqori bo‘lgan. Kredit yo‘qotishlari hisobga olingandan keyingi foizli sof natija Hamkorbankda 2 501 726 mln so‘mni, Ipak Yo‘li bankda esa 1 890 521 mln so‘mni tashkil etgan. Sof foyda ko‘rsatkichi bo‘yicha ham Hamkorbank yuqoriroq natijaga erishgan. Xususan, uning sof foydasi 1 786 756 mln so‘mni

[1] https://www.ifrs.org/

tashkil etib, Ipak Yo‘li bankning 886 309 mln so‘mlik natijasidan qariyb ikki baravar yuqori bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichlar Hamkorbankning foizli daromadlar va sof foyda shakllantirish borasidagi natijalari yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi.

2-Diagramma.

Hamkorbank ATB va Ipak yo’li bank ATB foizli daromadlari tahlili. (mln so’m hisobida)



2025-yilda Hamkorbank ATBning jami foizli daromadlari 5 174 244,9 mln so‘mni, Ipak Yo‘li bank ATBning foizli daromadlari esa 4 799 180,1 mln so‘mni tashkil etgan. Har ikki bankda ham foizli daromadlarning asosiy qismi kredit va lizing operatsiyalari hisobidan shakllangan. Xususan, Hamkorbankda kredit va lizing operatsiyalaridan olingan foizli daromadlar jami foizli daromadlarning 84,43 foizini tashkil etgan. Ipak Yo‘li bankida esa ushbu ko‘rsatkich 61,36 foizga teng bo‘lgan. Bu Hamkorbank daromadlarida kredit operatsiyalarining ulushi yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi.

Ipak Yo‘li bankida boshqa foizli daromadlar ulushi 24,13 foizni tashkil etgan. Hamkorbankda esa bu ko‘rsatkich 0,49 foizga teng. Shu sababli Ipak Yo‘li bankining boshqa foizli daromadlari tarkibini batafsil o‘rganish muhim hisoblanadi.

3-jadval.

ATB “Hamkorbank” va “Ipak yo’li bank” ning foizsiz daromadlari.

Ko’rsatkichlar	Hamkorbank summa	%	Ipak yo’li summa	%
Foizsiz daromadlar jami	4 191 539,040	100	1800 580,785	100
Kamissiya va xizmat haqlaridan daromadlar	1 170 113,393	27,92	918 125,327	50,99
Xorijiy valyutadagi foyda	2 338 552,996	55,79	575 232,760	31,95

Ko’rsatkichlar	Hamkorbank summa	%	Ipak yo’li summa	%
Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda	0	0	1 973,278	0,11
Investitsiyalardan olingan foyda	38 678,949	0,92	2 753,527	0.15
Boshqa foizsiz daromadlar	644 193,702	15,37	302 495,893	16,80

2025-yilda Hamkorbank foizsiz daromadlari tarkibida xorijiy valyuta operatsiyalaridan olingan foyda asosiy ulushni egallab, jami daromadlarning 55,79 foizini tashkil etgan. Komissiya va xizmat haqlaridan olingan daromadlar esa 27,92 foizga teng bo‘lgan. Ipak Yo‘li bankda esa foizsiz daromadlarning asosiy qismini komissiya va xizmat haqlaridan tushgan daromadlar tashkil etib, ularning ulushi 50,99 foizni tashkil qilgan. Xorijiy valyuta operatsiyalaridan olingan foyda 31,95 foizga teng bo‘lgan.[2] Ushbu ko‘rsatkichlar banklarda foizsiz daromadlarni shakllantirish manbalari turlicha ekanligini ko‘rsatadi. Hamkorbankda valyuta operatsiyalarining, Ipak Yo‘li bankda esa komission xizmatlarning daromadlar tarkibidagi ahamiyati yuqoriroq.[3]

Keyingi holatda biz 2025-yilda Ipak Yo‘li bankning foizli xarajatlari 2 845 735 mln so‘mni, Hamkorbankda esa 2 735 583 mln so‘mni tashkil etganligini ko’rishimiz mumkin. Hamkorbankda foizli xarajatlarning asosiy qismi muddatli depozitlar (48,92%), Ipak Yo‘li bankda esa boshqa foizli xarajatlar (41,44%) hissasiga to‘g‘ri kelgan. Foizsiz xarajatlar Hamkorbankda 1 967 639 mln so‘m, Ipak Yo‘li bankda 996 322 mln so‘mni tashkil qilgan. Hamkorbankda asosiy ulush xorijiy valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan zararlarga (75,57%), Ipak Yo‘li bankda esa komissiya va xizmatlar bo‘yicha xarajatlarga (76,53%) to‘g‘ri keladi. Operatsion xarajatlar Hamkorbankda 1 890 152 mln so‘m, Ipak Yo‘li bankda 1 463 713 mln so‘mni tashkil etgan. Har ikki bankda ham eng katta ulush ish haqi va xodimlar bilan bog‘liq xarajatlarga to‘g‘ri kelgan.

Ntijalar: O‘tkazilgan tahlillar natijasida Hamkorbank ATB va Ipak Yo‘li bank ATBning 2025-yildagi daromadlari hamda xarajatlari tarkibi o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Har ikki bank faoliyatida foizli daromadlar muhim o‘rin tutadi, biroq foizsiz daromadlarning shakllanish manbalari bir-biridan farq qiladi. Hamkorbankda valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromad va xarajatlar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, Ipak Yo‘li bankda komission xizmatlar salmog‘i yuqoriroq. Xarajatlar tahlili esa Hamkorbankda foizsiz va operatsion xarajatlar, Ipak Yo‘li bankda esa foizli xarajatlar yuqoriligini ko‘rsatdi. Har ikki bankda operatsion xarajatlarning asosiy qismini ish haqi va xodimlar bilan bog‘liq to‘lovlar tashkil etadi. Bu holat bank faoliyatida xarajatlarni nazorat qilish va resurslardan oqilona foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Tahlil asosida tijorat banklarida daromad va xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: daromad va xarajatlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq hisobga olish; foizli va foizsiz daromadlar bo‘yicha alohida tahliliy hisobni rivojlantirish; valyuta operatsiyalari bilan bog‘liq risklarni kamaytirish; komission xizmatlar va boshqa foizsiz daromadlar manbalarini kengaytirish; operatsion xarajatlarni

[2] https://ipakyulibank.uz

[3] https://hamkorbank.uz

muntazam monitoring qilish va optimallashtirish; IFRS 9 talablariga muvofiq moliyaviy instrumentlar va kutilayotgan kredit yo‘qotishlarini hisobga olish jarayonlarini takomillashtirish.

Xulosa: tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirish, xarajatlarni samarali boshqarish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari fondi (IFRS Foundation) rasmiy sayti – https://www.ifrs.org/.
2. Umarov Z. A. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari mohiyati // Iqtisodiyot va ta’lim jurnali. – 2006. – № 1.
3. Umarov Z. A. Banklarda buxgalteriya hisobi: darslik. – 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti – https://cbu.uz/.
5. Hamkorbank ATB rasmiy sayti. https://hamkorbank.uz Moliyaviy hisobotlar bo‘limi – Moliyaviy hisobotlar.
6. Ipak Yo‘li bank ATB rasmiy sayti. https://ipakyulibank.uz Moliyaviy va yillik hisobotlar – Moliyaviy hisobotlar.